

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YAVMUTOV DILSHOD SHOYIMARDONKULOVICH

**“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SHAROITIDA MINTAQA
IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Buxoro viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Fan doktor (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the Dostoral (DSc) dissertation abstrast

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)3

Явмутов Дилшод Шойимардонкулович

Совершенствование методологии устойчивого развития экономики региона в условиях перехода к "зеленой экономике" (на примере Бухарской области)33

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Improvement of the methodology of sustainable development of the regional economy in the conditions of transition to a "green economy" (on the example of the Bukhara region).....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YAVMUTOV DILSHOD SHOYIMARDONKULOVICH

**“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SHAROITIDA MINTAQA
IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Buxoro viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Iqt558 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xamidov Obidjon Xafizovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuxliyev Nurislom
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nizamov Asliddin Badreddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Vyetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «10» dekabr kuni soat 15.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.)

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/544 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, faks.: (99 865) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «26» NOYABR kuni tarqatildi.

(2024-yil «26» NOYABR dagi № 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.N. Navruz-Zoda
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

N.S. Ibragimov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

A.O. Ochilov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrda umumiy taraqqiyot yo'lini aniqlab olish, barcha xalqlarning manfaatlariga birday xizmat qiladigan maqsadlarni belgilash va unga intilishga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi. Shundan kelib chiqib, BMT, dunyo mamlakatlari, ularning parlamentlari va fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi uzoq davom etgan "global maslahatlashuvlar" natijasida barqaror rivojlanish yo'li – bashariyat uchun yagona to'g'ri yo'l, degan umumiy xulosaga kelinib, uning ustuvor mezonlari belgilab olindi¹. Jahonda milliy iqtisodiyotlarni barqaror taraqqiyot tendensiyalari asosida rivojlantirishda yashil iqtisodiyot muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy omil sifatida ko'rilmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning yangi shakli sifatida yashil iqtisodiyot mamlakatlar va ularning turli mintaqalarining barqaror rivojlanishida, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishda, resurslardan tejamkor va samarali foydalanishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, turdosh tarmoqlar taraqqiyotida yuqori daromad olishga imkoniyat yaratmoqda.

Jahonda ekologik muammolarning kuchayib borishi, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va resurstejamkor ishlab chiqarishda yangi iqtisodiy rivojlanish modellaridan foydalanish, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida hududlar iqtisodiyotini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, global isish sharoitida kamuglerodli ishlab chiqarishni samarali joriy qilish, hududlarning turli inqirozlar va ulardan keyingi davrlarda barqaror taraqqiy ettirish, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarining ekologiyalashuvi tendensiyalari, yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining asoslari, yashil o'sishni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, dekorbanizatsiya jarayonlarini yanada oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni pasaytirish evaziga barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

"O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo'lib qoladi"². Shu sababdan, yaqin kelajakda mamlakatimizda va uning mintaqalarida rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda, yashil iqtisodiyot tamoyillariga tayanib barqaror rivojlanishga erishish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, atrof-muhit muhofazasi muammolarini keskin kamaytirish mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 28-yanvaridagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy

¹ Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston [Matn] / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – 512 b.

² O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2023 yil 19 sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6679>

loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 02-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi 514-son "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son "Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, ma'muriy hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Jahonda yashil iqtisodiyotning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, barqaror rivojlanish orqali hududlar iqtisodiyotini samarali boshqarish uslubiyotini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP); Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Savdo va taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasi (UNCDAT), Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Jahon banki guruhi (WBG); Xalqaro Valyuta fondi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Xalqaro Mehnat tashkiloti (ILO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Barqaror rivojlanish xalqaro instituti

³ Диссертация ишида куйидаги хорижий илмий тадқиқотлар ва иқтисодчи олимларнинг илмий изланишларидан фойдаланилди: Адамович М. Зеленый курс, зеленый рост и зеленая экономика как средства поддержки достижения целей устойчивого развития. Устойчивость. Том 14, Выпуск 10.; Алинов М.Ш.. Основы зелёной экономики: учебное пособие / М.Ш.Алинов - Алматы: "Бастау" баспасы, 2016. - 340 с.; Annual report 2012.; Бобылев, С. Н. «Зеленая» экономика и модернизация. Эколого-экономические основы устойчивого развития. – 2012. – № 60. – 90 с.; Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2008. – 208 с.; Green Growth, Resources and Resilience: Environmental Sustainability in Asia and the Pacific // ESCAP. – 2012.; Давлетова М.М.. Формирование и развитие "зеленой" экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. Алматы 2019.; Зоимонова Э.М. Стратегия перехода к «зеленой» экономике: опыт и методы измерения. – М. 2020.; Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.; Марьян Е.В. «Зеленая» экономика, как фактор устойчивого развития / Е.В. Марьян // Вопросы устойчивого развития общества. – 2020. – №2. – С. 418–423.; Moore J. (1996). The Death of Competition: Leadership and strategy in the age of business ecosystems. New York: Harper Business.; Ocampo J. A. The Transition to a Green Economy: Benefits, Challenges and Risks from a Sustainable Development Perspective Summary of Background Papers. Columbia University. – P. 94.; The Green Economy Pocketbook: The case for action. – London : Green Economy Coalition, 2012. – 58 p.; Indicators of Sustainable Development: Guidelines and Methodologies. UN Commission on Sustainable Development. 2015. N.Y. – P. 310.; Inclusive Green Growth The Pathway to Sustainable Development/ The World Bank. May, 2012.; Доклад о мировом развитии 2022. Выборочные показатели мирового развития. Предварительные оценки Всемирного банка. Вес мир. М.: 2023. – 372 с.

(IISD); Jahon banki huzuridagi “Uglerod aktivlari transformativ fondi” (TCAF), Global kelishuv tashabbusi (UN Global Kompakt), Yashil o‘shish global instituti (GGGI), Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash hamkorligi (RAGE), Yashil o‘shish to‘g‘risidagi bilimlar platformasi (GGKP), Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi (GES), Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar: tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish uchun investitsiyalarning daromadlilikini oshirish (Xalqaro energetika agentligi va London imperiya kolleji, Buyuk Britaniya), Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning samarali yo‘llari (Barqaror rivojlanish sohasi ma’lumotlari bo‘yicha global hamkorlik - Global Partnership for Sustainable Development Data, AQSh), yashil o‘shish va barqaror rivojlanish metodologiyasini takomillashtirish (BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi - UNEP, “Dual Citizen” xalqaro agentligi, AQSh); dekorbanizatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish (Yashil o‘shish global instituti - GGGI, Janubiy Koreya).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda «yashil iqtisodiyot», mintaqalarning barqaror rivojlanish masalalari uncha uzoq bo‘lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan A.M.Rodrigues, D.Zhang, M.Mohsin, R.Sho‘derholm, A.Kasztelan, L.Georgeson, M.Maslin, M.Poessinouw, N.Norouzi⁴, MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida N.V.Pakhomova, K.K.Rikhter, G.B.Malyshkov, E.A.Lyaskovskaya, K.A.Grigor’eva, V.A.Poxvoshev, M.M.Davletova, N.N.Yashalova, V.Podgorniy, F.A.Shulenbaeva J.B.Smagulova, A.Ye.Muxanova, G.I.Musaevalar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin⁵.

⁴ A.M.Родригес. “Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>; Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. *Energy Policy*, 153, 112256.; Sho‘derholm P. The green economy transition: the challenges of technological change for sustainability. *Sustainable Earth. Söderholm Sustainable Earth* (2020) 3:6 <https://doi.org/10.1186/s42055-020-00029-y>.; A.Kasztelan. Green Growth, Green Economy and Sustainable Development: Terminological and Relational Discourse. May 2017. *Prague Economic Papers*, 2017, 26(4), 487-499, <https://doi.org/10.18267/j.pap.626>.; L.Georgeson, M.Maslin, M.Poessinouw. The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions. *Geo: Geography and Environment*. Jan. 2017 | Volume 4 | Issue 1. e00036ISSN 2054-4049 doi: 10.1002/geo2.36© 2017.; N. Norouzi. Green Economy: A Necessary Decision to be Taken. *Universal Journal of Finance and Economics*, 2021, 1, 3-12 www.scipublications.org/journal/index.php/ujfe DOI: 10.31586/ujfe.2021.108.

⁵ Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. *Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics]*, 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.); Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // Вестник УрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22. DOI: 10.14529/et180102.; В. А. Похвошев, А. В. Лукина. «Зеленая экономика» в социальном развитии России. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razviti-rossii>.; М.М.Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM.pdf>.; Яшалова Н.Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prlib.ru/item/684795>.; Подгорный В., Шуленбаева Ф.А. Использование “зеленой экономики” для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogوسفond.kz/wp->

O‘zbekistonlik A.V.Vahobov, SH.X.Hojiboqiev, T.K.Iminov, A.Isadjanov, E.A.Mo‘minova, kabi olimlarning tadqiqotlarida “yashil iqtisodiyot”ning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan⁶.

N.To‘xliyev, T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliev, A.A.Qayumov, F.Egamberdiyev, A.A.Abdusalyamov, A.B.Nizomov, B.Ro‘zmetov, A.A.Qulmatov⁷ kabi iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil etish, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan.

Yuqoridagi olimlarning fanning, ilmiy sohaning rivojlanishiga qo‘shgan hissasini e‘tirof etgan holda ta’kidlaymizki, O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa, mintaqalar iqtisodiy rivojlanishida hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ekologik muammolarni bartaraf qilishda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda “yashil iqtisodiyot” masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, uni joriy qilishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilinmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni takomillashtirish, hududlarni barqaror rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy jihatdan resurstejamkor ishlab chiqarish va innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda atrof-muhit muhofazasi masalalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini, ularni baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat

content/uploads/2022/08 /ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-ustojchivogo.pdf); Смарулова Ж.Б., Муханова А.Е., Мусаева Г.И. Анализ мирового опыта перехода к зеленой экономике: предпосылки и направления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 1-1. – С. 92-96; URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6344> (мурожаат вакти: 12.04.2023 й.).

⁶ Vahobov A.V., X.Hojiboqiev Sh.va b. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: Universitet, 2020. – 296 b.; Иминов Т.К., Вахобов А.В. и др. “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография. -Т: 2019. “Алоқачи”, 480 – б.; Исаджанов А. “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иқтисодиёт ва таълим / 2020, № 1. – Б. 12-18.; Мо‘minova E.A. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2023, 1 (161). – б. 16-22.;

⁷ To‘xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T.: O‘zME. 2020, - 204 b.; Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. - Т.: Фан, 1995. - 231 с.; Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / Академия наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 1991. - 298 с.; Садилов А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иқтисод-молия, 2005. – 279 с.; Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.; Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2004. – 116 b.; Рўзметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.; Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н.. – М.: 1993. – 17 с.; Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2(134). – B. 152-158.;

universitetining “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy talqinini tadqiq etish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning obyektiv zaruratini asoslash;

“yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning xorij tajribasini tahlil etish va uni O‘zbekiston mintaqalarida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish;

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etish;

“yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish;

“yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida barqaror rivojlanishni baholash uslubiyo‘tini o‘rganish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

mamlakatda sanoat tarmoqlari mintaqaviy barqaror rivojlanishining tahlilini amalga oshirish;

respublikada agrar sohani barqaror rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;

“yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda mintaqa xizmatlar sohasining innovatsion rivojlanishi tahlilini amalga oshirish;

mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishni hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida asoslab berish;

barqaror qishloq xo‘jaligini joriy qilishni mintaqani rivojlantirishda muhim yo‘nalish sifatida asoslab berish;

respublikada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida barqaror rivojlanish istiqbollari yaqin va o‘rta istiqboldagi prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «yashil iqtisodiyot»ga o‘tish sharoitida Buxoro viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda qatnashadigan davlat va nodavlat xo‘jalik yurituvchi subyektlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini «yashil iqtisodiyot»ga o‘tish sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, iqtisodiy-matematik, SWOT tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«yashil iqtisodiyot» tushunchasining iqtisodiy mazmuni tabiiy resurslardan samarali foydalangan holda chiqindisiz ishlab chiqarishga asoslangan, aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyot shakli nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

«yashil iqtisodiyot»ni joriy etishda ustuvor sifatida ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potensial sig‘imini baholash parametrlarini ishlab chiqish

hamda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish taklifi asoslangan;

«yashil iqtisodiyot»ga o'tish sharoitida tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishda «ifloslantiruvchi to'laydi» tamoyiliga asosan tashlangan chiqindilar va tashlamalar uchun to'lov miqdorlarini ularning hajmi hamda atrof-muhit va aholi salomatligi uchun xavfiga bog'liq bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqa iqtisodiyotining ekologiyalashuv darajasini aniqlashda iqtisodiyot obyektlarini ularning ichki bog'liqligini hamda tashqi muhit bilan aloqalari xususiyatlarini inobatga olgan holda, tabiatga munosabatlarlarining muqobil usullari bilan baholagan tarzda istiqbolda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik taraqqiyotni nazarda tutib, kompleks tadqiq etishga asoslanuvchi ekotizimli yondashuv taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish maqsadlari doirasida 2025-2029 yillar uchun dekarbonizatsiya jarayonlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan va asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«yashil iqtisodiyot»ga o'tish sharoitida mintaqalarning barqaror rivojlanishini reyting mexanizmiga asoslangan uch komponentli klaster usuli orqali baholashning indikatorlar kompleksi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston mintaqalarida «yashil iqtisodiyot»ga o'tish sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlashning SWOT tahlili amalga oshirilgan va asoslangan;

mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan va asoslangan;

mintaqa tabiiy resurslarini tizimli ravishda baholash uslubiyotida zamonaviy GAT texnologiyalari bilan moslashtirishga asoslangan «masofadan zondlash» tizimini qo'llash taklifi asoslangan;

kadastr hisobining yangi elementi – «tabiiy resurslarning kompleks hududiy kadastrini joriy qilish va shunday amaliyotni yuritish taklifi asoslangan.

«hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni muvofiqlashtiruvchi kengash» taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha mas'ul dasturi (UNEP), O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan yashil iqtisodiyotga o'tish, mamlakatimiz mintaqalarini barqaror rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, yashil iqtisodiyot hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining qamrov

darajasini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni yashil iqtisodiyotga o'tish va mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, jumladan, yashil iqtisodiyotni samarali joriy etish va mintaqalarni barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan davlatning maqsadli dasturlari, strategiyalari va konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Yashil iqtisodiyot", "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti", "Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

«yashil iqtisodiyot» tushunchasining iqtisodiy mazmuni tabiiy resurslardan samarali foydalangan holda chiqindisiz ishlab chiqarishga asoslangan, aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyot shakli nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifi "Mintaqaviy iqtisodiyot" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 68-621 sonli guvohnoma). Tadqiqot ishi natijalari "Mintaqaviy iqtisodiyot" fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

«yashil iqtisodiyot»ni joriy etishda ustuvor sifatida ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potensial sig'imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida 1-ilova bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"ning 5-bobini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 16-oktyabrdagi 03-03/4-10138-son ma'lumotnomasi). Mazkur tartib amaliyotidan foydalanish asosida Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi cho'l yaylovlarining tiklanish imkoniyatlari va potensial sig'imidan kelib chorvachilikni rivojlantirish natijasida ularning mahsuldorligi 15-20 foizga ortgan;

«yashil iqtisodiyot»ga o'tish sharoitida tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyiliga asosan tashlangan chiqindilar va tashlamalar uchun to'lov miqdorlarini ularning hajmi hamda atrof-muhit va aholi salomatligi uchun xavfiga bog'liq bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiqligi asoslangan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son Farmonida 2-ilova bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan atrof-

muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 7-bandini "Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari" ishlab chiqilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 16-oktyabrdagi 03-03/4-10138-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan amaliyotda foydalanish natijasida Buxoro viloyatidagi sanoat korxonalarining tabiiy suv havzalariga tashlama chiqindilari miqdori 25 foizga kamayishiga erishilgan;

mintaqa iqtisodiyotining ekologiyalashuv darajasini aniqlashda iqtisodiyot obyektlarini ularning ichki bog'liqligini hamda tashqi muhit bilan aloqalari xususiyatlarini inobatga olgan holda, tabiatga munosabatlarlarining muqobil usullari bilan baholagan tarzda istiqbolda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik taraqqiyotni nazarda tutib, kompleks tadqiq etishga asoslanuvchi ekotizimli yondashuv taklifidan "Mintaqaviy iqtisodiyot" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 68-621 sonli guvohnoma). Tadqiqot ishi natijalari "Mintaqaviy iqtisodiyot" fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish maqsadlari doirasida 2025-2029 yillar uchun dekarbonizatsiya jarayonlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan va asoslangan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" Farmonining 1-ilovasidagi 73- (Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo'yicha keskin choralar ko'rish) bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 16-oktyabrdagi 03-03/4-10138-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amalga qo'llash natijasida O'zbekistonda atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning hajmini 10,5 foizga qisqartirish to'g'risida prognoz qilishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta ilmiy monografiya nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 232 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar

rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Yashil iqtisodiyot” sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlashning ilmiy-metodologik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining mazmun-mohiyati, mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning obyektiv zarurati, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning xorij tajribasi va uni O‘zbekiston mintaqalarida qo‘llash imkoniyatlari, “yashil” iqtisodiyotni joriy qilishga bag‘ishlangan ilmiy qarashlar tahlil etilgan, mintaqalarni barqaror rivojlantirish tamoyillari va usullari o‘rganilib, uning zaruriyati ilmiy asoslangan.

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasining tarafdorlari hozirda ustunlik qilayotgan iqtisodiy tizim to‘liq takomillashmagani va ayrim kamchiliklarga egaligini ta’kidlashadi. Ayni damda iqtisodiy taraqqiyotning “qo‘ng‘ir iqtisodiyot” deb nomlanuvchi ushbu modeli rivojlanishda ko‘plab natijalarni berib, iqtisodiy taraqqiyotga, insonlarning turmush tarzini yaxshilashga erishayotgan bo‘lsada, biroq, mazkur iqtisodiy tizimning salbiy ko‘rsatkichlari, natijalari ancha kattadir. Bular, birinchidan, iqlim o‘zgarishi, cho‘llashuv, bioxilma-xillikning pasayishi, suv va havoning ifloslanishi hamda boshqa shu kabi ekologik muammolar kuchayishi, ikkinchidan, tabiat kapitalining ayovsiz ishlatilishi natijasida tugab borayotgani, uchinchidan, kambag‘allikning keng qamrovli rivojlanishi, to‘rtinchidan, ichimlik suvi, oziq-ovqat va energiya tanqisligi, beshinchidan, davlatlar va aholi o‘rtasida boy va kambag‘al qatlam tavofutning keskin ortishida va boshqalarda kuzatilmoqda.

«Yashil iqtisodiyot»da jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bilan bir qatorda tabiiy-ekologik hodisalarni ham tadqiq qiladi, ularning o‘zaro bog‘liqlikdagi natijalarini o‘rganadi, shu sababdan, bu jarayonlarni tadqiq qilishda, boshqa yondashuv taqazo etilmoqda. Ushbu holat mazkur muammoni hal etishda ularning integratsiyasini va nazariy-metodologik mexanizmlarini to‘liq namoyon qiluvchi yangi nazariy-metodologik asosni yaratishni taqazo etadi.

Muallif bunday yondashuv sifatida ayrim xorijlik olimlar tomonidan amaliyotda samarali qo‘llana boshlangan ekotizimli yondashuvni taklif qiladi. Ekotizimli yondashuvda tabiatdagi har bir ekotizim alohidalikda emas, balkim, umumiy, yaxlit ekotizim sifatida, majmualiy tadqiq qilinadi, masalan, tuproq bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq qilinganda, tuproq bilan birga tabiatning boshqa komponentlari – suv, havo, iqlim va h.k.lar majmualiy o‘rganiladi. Iqtisodiyot va tabiat munosabatlari jarayonlari tadqiq qilinganda ham moliyaviy-iqtisodiy dastaklarning ta’sir in’ikosi ekosistemaning boshqa tashkil etuvchilariga ham ta’siri darajalari bilan birgalikda o‘rganiladi.

Muallif o‘zining monografik tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib, ekotizimli yondashuvga quyidagicha ta’rif ishlab chiqdi: “Ekotizimli yondashuv – zamonaviy iqtisodiyotda obyektni uning ichki bog‘liqliklarini hamda tashqi muhit bilan aloqalarini barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda, kompleks, boshqa

yondashuvlar metodologiyasi bilan integral tarzda, tabiatga munosabatlar texnologiyalarining muqobil usullari bilan baholagan holda istiqbolda tizimlar davomiyligi va ijtimoiy taraqqiyotni inobatga olgan holda tadqiq etish usuli”.

“Yashil iqtisodiyot”ga jahonning ko‘plab olimlari va turli tashkilotlari qator ta’riflarni ishlab chiqqan. Ta’riflarda ayrimlar bu konsepsiyani iqtisodiy tizim deyishsa, kimdir iqtisodiy rivojlanish modeli, kimdir iqtisodiy rivojlanish usuli sifatida izohlaydi.

Muallif ko‘plab adabiyotlar va manbalarda “yashil iqtisodiyot”ga berilgan ta’riflarni tadqiq etgan holda, hozirda ushbu konsepsiyaning mazmuni va mohiyatini chuqur anglagan holda o‘zining mualliflik ta’rifini ishlab chiqdi va uni quyidagicha tahrirlaydi: “yashil iqtisodiyot” – barqaror rivojlanishga, qaror qabul qilishda kompleks yondashuvga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga tayanib, resurslardan samarali foydalanish evaziga hayot darajasini yaxshilashga asoslangan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kelajak avlodga tabiiy muhitni asrab-avaylab yetkazishni nazarda tutuvchi, iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli⁸.

Xorijiy ekspertlar tavsiyasiga qo‘shilgan holda muallif yashil iqtisodiyotni joriy qilish orqali YaIM o‘sishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishish bilan bog‘liq islohotlarni quyidagi to‘rtta yo‘nalishda amalga oshirishni tavsiya qiladi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o‘tish tabiiy va inson kapitali iste’mol resurslarini oshirishga qodir, ya’ni, tabiiy kapitalni samarali boshqarish va inson salohiyati oshishi evaziga tabiiy atrof-muhitning holati yaxshilanishi, buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Ikkinchidan, bu o‘zgarishlar ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda tarkibiy, bazaviy tarmoqlarda, jumladan, energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, maishiy soha va boshqalarda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi, oqibatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida samaradorlikning ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida mustaqil ravishda investitsiyalar ajratiladi, asosan, suv ta’minoti tizimi, kanalizatsiya tarmoqlari, jamoat transporti kabi muqobil energiya talab qiluvchi tarmoqlarga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchidan, yashil iqtisodiyotga o‘tish innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi, buning oqibatida raqobat muhiti kuchayadi, Innovatsion samara ortadi⁹.


O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga quyidagi tamoyillar asosida o‘tish belgilangan:

- barqaror rivojlanishning global maqsadlariga Milliy maqsad va vazifalarning uyg‘unligini ta’minlash;
- mavjud resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste’mol va ishlab chiqarishga erishish;
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;

⁸ Tadqiqotlarga asosan ishlab chiqilgan mualliflik ta’rifi.

⁹ D.Sh.Yavmutov, K.S.Karimova. O‘zbekiston iqtisodiyotida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy qilish masalalari. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 7) (май, 2022). – С. 495-502. <https://www.mpcareer.ru/oinv21veke3>.

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun «yashil» vositalar va yondashuvlarni qo‘llash ustuvorligi;
- eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va ko‘rsatkichlarni yaxshilash, «yashil» ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash¹⁰.



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati va o‘rni¹¹

O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishining asosiy zarurlari:

- mamlakatda va uning mintaqalarida iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta’minlashdir. “Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy rivojlanishning shunday shakli, unda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda, bir-birini taqazo etgan holda, barqaror rivojlanishni ta’minlaydi;

- jahonning barcha mamlakatlari singari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishini Kovid-19 pandemiyasidan oldingi darajaga olib chiqishga, uning barqarorligini mustahkamlashga, pandemiyaning asoratlarini uzil-kesil yo‘qotishga, shu bilan birga milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘shishni ta’minlash. Yashil iqtisodiyotning muhim va asosiy shartlaridan biri – muqobil energiyani yaratish va uning atrof-muhitga zararsiz iste’molini tashkillashtirishdir. O‘zbekiston bu borada katta potensialga ega mamlakat sanaladi. O‘zbekiston 2022-yilda 65 mlrd kvt/soat elektr energiya ishlab chiqargan. Mamlakatda elektr energiyaning asosiy iste’molchilari sanoat (45%), uy-joy kommunal sektori (31%), qishloq xo‘jaligi (9%) va boshqa maqsadlar (15%)

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4477 sonli “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 y., 07/19/4477/3867-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022 й., 07/22/436/1061-son.

¹¹ Tadqiqotlarga asosan muallif ishlab chiqqan.

sanaladi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinmoqdaki, energiya iste'molchilarining dastlabki ikki vakillarining O'zbekistonda yaqin istiqbolda o'sishi energiyaga bo'lgan talabning yanada ortishini anglatadi. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublika 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zahirasiga ega. Ushbu ko'rsatkich mamlakatning energiyaga bo'lgan ehtiyojidan uch karra ko'r. Shuningdek, "yashil energetika" sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari hissasini 3 barobardan ziyodga oshirish imkonini beradi;

- mamlakatda energiya ishlab chiqarish deyarli to'liq uglevodorodlar (neft, tabiiy gaz, ko'mir)ni ishlab chiqarishga bog'liq bo'lib turibdi. O'zbekistonda uglevodorod energetikasidan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 4,5 foizini yo'qotmoqda. Xalqaro amaliyotga nisbatan mamlakat iqtisodiyoti energiyatalab va uglerodtalab sanaladi. Respublika YaIMning energiyatalabligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n davlatdan biri sanaladi. O'zbekiston YaIMning energiyatalabligi ko'rsatkichi bo'yicha Germaniya, Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlardan ikki karra yuqoriligi, uglerodtalabligi bo'yicha dunyo davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 1,5 marta yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, uglevodorodlarning mamlakatdagi zahirasi yaqin o'n yillikdagi istiqbolda tugashi, yangi turdagi, muqobil energiya manbalaridan foydalanishni taqazo qiladi. Shu sababdan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish o'z navbatida "yashil energetika"ga o'tishni talab qiladi va O'zbekistonda muqobil energetika tizimining shakllanishi obyektiv zaruratdir;

- respublikadagi energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish quvvatlarining 40 foizga yaqini ma'nan hamda jismonan eskirgan. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, mamlakatdagi elektr energiyasi tarmoqlari aksariyat qismi 30 va undan ortiq yildan buyon foydalanib kelinmoqda. Magistral va taqsimlash tarmoqlarining 66 foizi, 74 foiz podstantsiyalar va 50 foiz transformator podstantsiyalari 30 yildan ortiq ishlab kelmoqda. Bu o'z navbatida energiya uzatilishi va taqsimlanishidagi texnik yo'qotishlarning asosiy sababi bo'lib turibdi. 2010-2022 yillarda iste'molchilarning elektr energiyaga bo'lgan talab to'la qondirilmadi, ushbu yillarda elektr energiyasini ishlab chiqarish yillik o'rtacha 3,1 foizga o'sdi, xolos. 2022-yilda elektr energiyasi iste'mol talabi va uning ishlab chiqarilishi o'rtasidagi yetishmovchilik 15,5 foizga etgan.

- atrof-muhit muhofazasi masalasi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanishni rag'batlantirish hamda chiqindilarni va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish evaziga ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga nisbatan tabiiy resurslar iste'molini kamaytirishga yordam beradi. Bu tabiiy resurslardan foydalanishda ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.


Jahon mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil o‘sish”ni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan strategiyalar¹²

Mamlakat	Maqsadi va ustuvor yo‘nalishlari
Evropa Ittifoqi	“Evropa 2020” dasturi (2015 y.), “Evropa yashil bitim” dasturi (2019 y.) Uglerod va boshqa tabiiy resurslarni kam iste’mol qiluvchi iqtisodiyotga o‘tish, shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlash, iqlimning salbiy o‘zgarishini pasaytirish, tabiiy resurslardan foydalanishda tabiat ifloslanishining oldini olish.
Fransiya	“Yashil o‘sishga energetik o‘tish to‘g‘risida”gi qonun (2015-y.), “Bio xilma-xillik, tabiat va landshaftni tiklash to‘g‘risida”gi qonun (2016-y.); “Past uglerodli”, “2015-2020 yillarda barqaror rivojlanishga ekologik o‘tish” milliy strategiyalari (2015-y.). uglevodorodlarga qaram energetika modelidan muqobil manbalarga asoslanuvchi energetikaga o‘tish. Resurslarning degradatsiyasi, ularning tugab borishi, energiya ta’minoti, narxlar o‘zgarishi, atrof-muhit muhofazasi, inson salomatligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish.
Buyuk Britaniya	Sanoatni rivojlantirish (Industrial Strategy – 2017-y.), Sof o‘sish strategiyasi (Clean Growth Strategy – 2017-y.). Mamlakatning barcha hududlarida va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida korbonad angidrid gazlari miqdorini pasaytirish. Uglerod o‘rnini bosuvchi innovatsiyalar”ni joriy qilish va ularni rag‘batlantirish.
Koreya Respublikasi	“Yashil o‘sish milliy strategiyasi va besh yillik reja” (2009-2013 yy.); 2040-yilgacha Koreyada vodorod iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xarita” (2015-y.). Barqaror o‘sish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, insonlar uchun hududlarda qulay muhit yaratish; aholi turmush sifatini oshirish; global iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlari bilan kurashish.
Yaponiya	“Energetikani rivojlantirish strategiyasi”. Issiqxona gazlari miqdorini 2030-yilgacha 2010-yildagiga nisbatan 26 %ga, 2050-yilgacha 80%ga kamaytirish, muqobil energiya ulushini 22-24 %ga ko‘paytirish.

Jahon mamlakatlarining globallashtirish jarayonining harakatlantiruvchi asosiy kuchi – dunyo iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi sharoitida yangi texnologik tartibga o‘tishi sanaladi. Iqtisodiy qudratli mamlakatlar uchun yangi texnologik tartibda iqtisodiyotning samaradorligi, raqobatbardoshligini oshirish, aholining turmush sifati, yashash va ishlash muhitini yaxshilashga xizmat qilishi zarurligi muhim sanaladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) a’zo va boshqa davlatlar bunday maqsadga erishishning asosiy yo‘li sifatida 2030 va 2050-yillarga mo‘ljallangan “yashil o‘sish” strategiyasini ishlab chiqqan (1-jadval).

¹² «Оценка зелёной трансформации экономики: руководство для стран восточного партнерства ЕС» (https://www.green-economies-eap.org/ru/resources/EaP%20GREEN_GGI%20Guide_clean_RUS_Final.pdf) маълумотлари асосида муаллиф тузган.

Dunyo mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni baholashning muhim ko‘rsatkichi sifatida issiqxona gazlari emissiyasi miqdorini Parij bitimida tasdiqlangan maqsad – 1990-yil ko‘rsatkichiga tenglashtirish sanaladi. Atmosferaga chiqarilayotgan CO₂ miqdori 1990-2023 yillarda jahon bo‘yicha 1,6 martaga ortgan, bu raqam IHTTga a‘zo mamlakatlarda 103,3 %ga, IHTTga a‘zo bo‘lmagan mamlakatlarda esa 2,3 martaga ortgan (2-rasm).



2-rasm. Dunyo mamlakatlarida atmosferaga chiqarilayotgan CO₂ miqdorining o‘zgarishi, mlrd. tonna¹³

Tadqiqot ishining **“Mintaqa iqtisodiyotini “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish uslubiyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlili amalga oshirilgan, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida barqaror rivojlanishni baholash uslubiyoti, ushbu metodologiyani takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.


Davlat tomonidan mintaqalarda va iqtisodiyot tarmoqlarida yashil iqtisodiy siyosat amalga oshirilganda barcha jabhalarni qamrab olgan, majmual, ekotizimli yondashuv bilan amalga oshirish zarur. Muallif yashil siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlari sifatida ma‘muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va axborot dastaklarini ajratib ko‘rsatadi

O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- «yashil» iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish¹⁴.

¹³ bP Energy Outlook 2024 edition. ma‘lumotlari asosida muallif tuzgan. <https://www.bp.com/content/dam/bp/business-sites/en/global/corporate/pdfs/energy-economics>.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 04 oktyabrdagi PQ-4477 sonli “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/4539502>.



3-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha vazifalar taqsimoti¹⁵

Mamlakatda mintaqalarning iqtisodiyot tarmoqlarini yashil iqtisodiyotga o'tkazishning maqsadli parametrlari (2-jadval) va ularni amalga oshirishda vazifalar taqsimoti ishlab chiqilgan (3-rasm).

Mintaqalarda yashil iqtisodiyotga o'tish, uni samarali joriy qilishning asosini ekologik siyosat tashkil etadi. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy dastaklari turli tuman bo'lib ularning eng ta'sirchan shakli bu soliqlardir. O'zbekistondan ekologik soliq va uglerod soliqlari undirilmaydi. Muallif ekologik siyosatning ta'sirchanligini oshirish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyiliga asosan tashlangan chiqindilar va tashlamalar uchun to'lov miqdorlarini ularning hajmi hamda atrof-muhit va aholi salomatligi uchun xavfiga bog'liq bo'lishini ta'minlashni taklif qiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini tartibga solish iqtisodiy dastaklarga asoslanishi zarur. Xalqaro darajada global iqlim o'zgarishining oldini olishda iqtisodiy usullar faol qo'llanilmoqda. Ular qatoriga atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdorini kvotalash, uglerod soliqlarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlariga "yashil texnologiyalar"ni joriy etishda turli imtiyozlar belgilash kabi dastaklarni kiritishimiz mumkin. Dunyo tajribasida ishlab chiqarilayotgan 1 tonna CO₂ uchun undiriladigan soliq miqdori qancha yuqori bo'lishi, uning shuncha kamayishiga sabab bo'lishi ko'rinadi.

¹⁵ Mavjud ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2-jadval

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar¹⁶

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022-yil	2024-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
1.	YAIM birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (2021-yilga nisbatan)	%	5,0	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushi	%	26,0	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish	%	8,0	9,0	24,3	29,0	30,5
		kVt/s	6,5	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stantsiyalarini qurish	MVt	10,0	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	69,7	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zahiralari ko'paytirish	mln. m ³	64,2	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	«Yashil makon» loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish	%	8,3	12,4	15,8	23,8	30,0
8.	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	%	30,0	40,0	50,0	60,0	65,0

Muallif tomonidan jahon amaliyotida qo'llanilayotgan barqaror rivojlanishni baholash indikatorlari tahlil qilindi va ular quyidagi ko'rinishda guruhlandi: ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy (3-jadval).

3-jadval

Jahon amaliyotida qo'llanilayotgan barqaror rivojlanishni baholash indikatorlari guruhlanishi¹⁷

Ijtimoiy: ijtimoiy kapital, kambag'allik darajasi, gender tenglik, salomatlik, sog'lom ovqatlanish holati, o'lim darajasi, sanitariya holati, ichimlik suvi, sog'liqni saqlash ta'minoti, hayot tarzi va kasalliklar, ta'lim sifati va darajasi, savodxonlik, uy-joy ta'minoti, yashash sharoiti, xavfsizlik, jinoyatchilik, aholi dinamikasi, kasbiy	Ekologik: atmosfera tarkibi buzilishi, iqlim o'zgarishlari, Ozon qatlami yemirilishi, havo sifati, yer sifati, o'rmonlar holati, cho'llanish, urbanizatsiya, okean, dengiz va qirg'oqlar holati, tabiiy landshaftlar holati, ichimlik suvi sifati, suv tanqisligi, bio xilma-xillik, ekotizim degradatsiyasi, turlar rivojlanishi, tabiatda
--	--

¹⁶ 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash dasturiga asosan muallif tomonidan tuzildi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022 y., 07/22/436/1061-son; 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son.

¹⁷ Mavjud ma'lumotlar tadqiqotiga asosan muallif tuzgan.

taraqqiyot, axborotga ochiqlik, etnik ozchilik, madaniy meros, san'at va dam olish.	kislotalar darajasi, toksik ifloslanish, qattiq va maishiy chiqindilar.
Iqtisodiy: milliy daromad va milliy boylik, iqtisodiy samaradorlik, savdo, moliyaviy ahvol, turizm taraqqiyoti, ishlab chiqarish va iste'mol tarkibi, material iste'moli, energiyadan samarali foydalanish, chiqindilarni boshqarish, infratuzilma rivojlanganlik darajasi, xalqaro kooperatsiya darajasi, barqaror rivojlanish strategiyalarining amalga joriy qilinishi, institutsional quvvat, fan va texnologiya, favqulotda vaziyatlarga tayyorgarlik, kommunikatsiyalar infratuzilmasi rivojlanganlik darajasi.	

Muallif jahon amaliyotida “yashil iqtisodiyot”ni baholashda qo'llanilayotgan usullar, yondashuvlar metodologiyasini tadqiq qilgan holda quyidagicha tasniflaydi (4-jadval).

4-jadval

“Yashil iqtisodiyot”ni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi¹⁸

Xalqaro tashkilot	“Yashil iqtisodiyot”ga o'tishdan maqsad	“Yashil iqtisodiyot” ko'rsatkichlari
BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP)	Atrof-muhitning o'zgarishi bilan bog'liq risklar va ekologik taqchillikni kamaytirish asosida insonlar farovonligini yaxshilash va ijtimoiy tenglikka erishish ¹⁹	Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatining samaradorligi va aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining ortishini aks ettirish
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	Inson farovonligi bilan bog'liq tabiiy aktivlar barqarorligini ta'minlagan holda iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashish ²⁰	Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish, iste'mol va ayirboshlash jarayonlaridagi munosabatlar tizimi asosida ishlab chiqilgani uchun “yashil iqtisodiyot”ni uch o'lchamda (iqtisodiyot, tabiat va jamiyat) baholash imkonini beradi
Jahon Banki	Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazish va uni ifloslantirishni minimallashtirish asosida iqtisodiy o'sishga erishish; Yashil o'sish tabiiy ofatlarga, tabiiy kapitalning jismoniy yo'qotishlariga nisbatan barqaror hisoblanadi ²¹	“Yashil o'sish” asosida erishish mumkin bo'lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash
Global yashil o'sish instituti	Iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash	“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish imkoniyatlarini baholash va barqaror “yashil o'sish”ni ta'minlash darajasini tavsiflash
“Dual Citizen” xalqaro agentligi		Global yashil iqtisodiyot indeksini hisoblash va “yashil iqtisodiyot”ning amal qilish darajasini aks ettirish

Hududlarning iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishini baholashda dastlab, mazkur hududning rivojlanishi to'laonli namoyon qiluvchi indikatorlar to'plamini

¹⁸ Tadqiqotlarga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁹ <https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1446>

²⁰ <http://www.oecd.org/greengrowth/>

²¹ Inclusive Green Growth the Pathway to Sustainable Development/ The World Bank page-48

shakllantirish lozim. Bu juda murakkab jarayon bo'lib, birinchi navbatda, ko'plab ma'lumotlarni, jamiyat va iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini izohlovchi ko'rsatkichlarni qamrab olish talab etiladi. Ikkinchi bosqichda turli birliklarda hisoblanadigan va turli vaziyatlarni bayon etuvchi bir qancha indikatorlarni bir tartib va bir hisoblash birligiga, bir tizimga keltirish talab etiladi. Uchinchi bosqichda bu indikatorlarni umumlashtirgan holda, umumiy, yagona xulosani shakllantirish zarur.

Barqaror rivojlanish ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan hududning tizimli va balanslashgan rivojlanishini ko'rsatib berar ekan, unda albatta ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarning kompleks namoyon bo'lishini ta'minlash zarur bo'ladi. Barqaror rivojlanish asosida 3 ta – ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik tizimlarning yagona ekotizimi shakllanadi. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini baholashda quyidagi algoritmdan foydalanishni taklif qilamiz (4-rasm):



4-rasm. Mintaqaning barqaror rivojlanishini baholash algoritmi²²

Muallif mintaqa iqtisodiy barqaror rivojlanishini baholashning mualliflik metodikasini shakllantirishda barqaror rivojlanishni aks ettiruvchi 57 ta indikatorni 3 ta tashkil etuvchi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar majmuasini klaster usulida shakllantirishga yondashgan holda takomillashtirdi (5-rasm).


Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘zbekistonda mintaqaviy rivojlanishning hozirgi holati tahlili”** deb nomlanib, ushbu bobda mamlakatda sanoat tarmoqlarining mintaqaviy rivojlanishi, agrar sohani rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy jihatlari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda mintaqa xizmatlar sohasining innovatsion rivojlanishi, mamlakatda ekologik muammolarning holati va ularning mintaqalar barqaror rivojlanishiga ta’siri tahlillari tadqiq etilgan.

²² Muallif ishlanmasi.



5-rasm. Mintaqa barqaror rivojlanishini baholashning klaster usuli²³

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarining strukturaviy nisbati 1991-2015 yillarda keskin o'zgarishlarga uchragan bo'lsa, 2016-yildan boshlab bu o'zgarishlar nisbatan barqarorlashdi, mavjud o'zgarishlar ham xizmatlar sohasi ulushining sekin ortib borishi shaklida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda sanoat rivojlanishi barqaror yuz berayotgan bo'lsada, uning muhim ko'rsatkichlaridan biri, yalpi hududiy sanoat mahsuloti va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish mintaqalar o'rtasida keskin farqlanadi (6-rasm).



6-rasm. Hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi (2022-yil, ming so'm)²⁴


Yana bir muhim indikatorni tahlil qilsak, unda ham pasayishni kuzatamiz. Umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) hisobidan elektr energiya ishlab chiqarish ulushi ham pasayib bormoqda. 2016-yilda jami ishlab chiqarilgan elektr energiya tarkibida QTEM dan ishlab chiqarilgan elektr energiya ulushi 11,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda uning ulushi 6,8 foizni tashkil qildi²⁵. Muallif buning asosiy sababi sohada haligacha

²³ Muallif ishlanmasi.

²⁴ Muallif ishlanmasi.


²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi..

investitsion cheklovlarning mavjudligini, tarmoqqa yetarli darajada investitsiyalar kiritilmayotganida deb hisoblaydi (7-rasm). Sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning jami investitsiyalarga nisbatan ulushi 2018-yildagi 12,4 foizdan 2022-yilda 7,8 foizga tushgan.



7-rasm. O‘zbekistonda jami elektr energiyasi ishlab chiqarishda QTEM ulushi va sohaga kiritilayotgan investitsiyalar ulushi (jamiga nisbatan foizlarda hisoblangan)²⁶

FAO mutaxassislariga ko‘ra dunyodagi o‘ta qashshoqlikda yashovchi aholining deyarli 75 %i qishloq joylarida yashaydi va ularning hayot tarzi, oziq-ovqat xavfsizligi asosan agrar tarmoqning taraqqiyotiga bog‘liq²⁷. Ushbu tarmoqning samarali rivojlanishi mamlakat aholisi asosiy qismi hayot tarzining yaxshilanishini, ayrim mintaqalarning iqtisodiy barqaror rivojlanishini belgilab beradi. Chunki, O‘zbekistonda aholining yarmidan ko‘pi qishloq joylarda yashaydi va aksariyat aholi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga u yoki bu darajada bog‘liq. Bunga sohaning uzoq yillar mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishida eng katta ulushga ega bo‘lib kelgan sabab, hozirda ham bu tendensiya davom etmoqda.



8-rasm. Viloyatlarda qishloq xo‘jaligining YaHM dagi ulushining ko‘p yillik o‘rtacha ko‘rsatkichi (2015-2022 yillar o‘rtachasi, foiz hisobida)²⁸

Bugungi kunda agrar soha YaIMning 25-30 foizini tashkil etmoqda. O‘zbekiston jahon mamlakatlari ichida qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushi yuqoriligi bo‘yicha 18-o‘rinda turadi²⁹. Shu bilan birga, respublika bo‘yicha band bo‘lgan aholining qariyb 25 foizi (2023-yil boshida) qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich 3,5 mln. kishini tashkil etmoqda. Tahlillar ko‘rsatadiki,

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga asosan muallif tuzdi.


²⁷ <https://www.fao.org/global-perspectives-studies/ru/>.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga asosan muallif tuzdi.

²⁹ https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/agricultural_product

tarmoqning mamlakat mintaqalarida rivojlanish darajasi va hududiy iqtisodiyot tarmoqlari orasida ulushi turlichaligi bilan tavsiflanadi (8-rasm).

O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri bu mintaqalarda aholi jon boshiga nisbatan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sib borishidir. Viloyatlar kesimida bu ko'rsatkichning keskin farqlanishi ushbu hududlarda mazkur sohaning qay darajada ixtisoslashganidan va uning qay darajada barqarorligidan darak beradi (9-rasm).




9-rasm. Hududlarda aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (2022-yil, ming so'm hisobida)³⁰

Buxoro viloyatida agrar sohada vujudga kelgan holatlarni tahlil qilgan holda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda yuzaga kelgan hududiy xususiyatlari sifatida muallif quyidagilarni ko'rsatadi:

tabiiy-ekologik sharoiti (relyefi, tuproqlari, iqlimi); sug'orishning to'la mashina usulida amalga oshirilishi (sug'orish suvi uchun qilinayotgan xarajatlarning respublika bo'yicha eng yuqoriligi); sug'orish suvining to'la qo'shni hududlardan olinishi (suvni taqsimlash jarayonini to'la boshqarish imkoniyatining pastligi); yerlarning meliorativ holati yomon (90,6 foiz sug'oriladigan erlar turli darajada sho'rlangan); yerning sho'rini yuvish uchun har yili katta miqdorda moliyaviy-iqtisodiy va suv resurslari jalb qilinadi (bu yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning tannarxi baland bo'lishiga omil); irrigatsiya tarmoqlarining samaradorligi juda past (sug'orish usullari va tarmoqlari modernizatsiya talablariga javob bermaydi); qishloq xo'jalik korxonalarining innovatsion rivojlanganlik va texnik-texnologik ta'minlanganlik darajasi past; qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari takomillashtirilmagan va bozor tamoyillari to'la amal qilmaydi.

Zamonaviy xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi tendensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda xizmatlar sohasining hududlar bo'yicha yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi turlichaligi bilan tavsiflanadi (10-rasm). Bunga albatta mamlakat hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda aholining hayot tarzi sifati darajasi muhim ta'sir etuvchi omildir.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif tuzgan.



10-rasm. Xizmatlar sohasining mintaqalar bo'yicha yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi (foizlarda)³¹


Tadqiqot ishining “**Mintaqani “yashil iqtisodiyot”ga o'tishi asosida barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilib, ilmiy asoslangan, barqaror qishloq xo'jaligi mintaqani rivojlantirishda muhim yo'nalish sifatida asoslangan, mamlakatda ekologik muammolar holatini yaxshilash orqali mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'llari tadqiq qilingan, mintaqani yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror rivojlanishi istiqbollari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati hududlarda ishlab chiqarishning, butun iqtisodiyot tarmoqlarining ekologiyalashuvini, “yashil iqtisodiyot”ga o'tishini talab qiladi. Muallif yuqoridagilarni inobatga olib O'zbekiston mintaqalarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini taklif qiladi (11-rasm).

Bugungi kunda respublika darajasida ham mamlakat ichida – hududlar darajasida ham ekologik-iqtisodiy jihatdan yagona boshqaruv strukturasi, organi mavjud emas. Hozirda tarmoq yo'nalishida boshqaruv mavjud, biroq, tarmoqlararo darajada shakllantirilgan, majmuali tarzda muammolarni o'rganib, yechim taklif qiluvchi, hududlarning ekologik-iqtisodiy rivojlanishi uchun mas'ul struktura mavjud emas. Muallif mas'ul hududiy ishchi guruh sifatida “Hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash”ni tashkil etishni taklif qiladi.

Ushbu Kengashning asosiy maqsadi – hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlashni muvofiqlashtirib borish. Asosiy vazifasi - hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha monitoring yuritish, holat bilan bog'liq muammolarni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan va kollegial qabul qilingan yechimlarini tavsiya qilish, hududning samarali ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishini muvofiqlashtirib borishdir (12-rasm). Mamlakat miqyosida vazirliklar, qo'mitalar rahbarlari hamda respublikada yetakchi iqtisodchi va ekolog olimlardan tashkil topishi tavsiya etiladi.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif tuzdi.




11-rasm. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi³²

Barqaror qishloq xo'jaligi hozirda ko'plab mintaqalar, mamlakatlar tomonidan kelajak rivojlanish modeli sifatida tanlanmoqda va o'zlarining bu boradagi strategiyalarini ishlab chiqishgan. Muallif ham O'zbekistonda, mintaqalarda yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning maqbul yo'li sifatida barqaror qishloq xo'jaligini tavsiya qiladi.

Muallif O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyatni inobatga ogan holda, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul yo'nalishlari sifatida quyidagi 4 ta yo'nalishni samarali tashkil etish va amalga oshirishni tavsiya qiladi:

birinchidan, dunyo aholisining ovqatlanish ratsioni tarkibi o'zgarib borayotgan, kun sayin sog'lom turmush tarzi keng ommalashib borayotgan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik toza qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, *ikkinchidan*, an'anaviy, monokultura usulidagi qishloq xo'jaligi yuritishdan, chorvachilik bilan muvozanatlashgan, tuproq va ekosistemalarning barqaror boshqaruviga, almashlab ekishga, bioxilma-xillikka asoslangan, innovatsion, regenerativ qishloq xo'jaligiga o'tishni, *uchinchidan*, yerdan foydalanishni va uni muhofazalashni oqilona tashkil etishni, *to'rtinchidan*, mamlakatda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni qat'iy joriy qilish.

³² Muallif ishlanmasi.



12-rasm. Hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati³³

O'zbekiston suv stressiga moyil bo'lgan 25 ta davlatlar qatoriga kirsada, biroq, haligacha mintaqalarda suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda (5-jadval).

5-jadval.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida suvni tejavchi texnologiyalarning joriy qilinganligi, 2023-yil³⁴

№	Hudud nomi	Maydon, ga his.	Maydon, jamiga nisbatan % his.
1	Xorazm viloyati	139042	52
2	Navoiy viloyati	50425	41
3	Jizzax viloyati	109416	36
4	Buxoro viloyati	95054	35
5	Andijon viloyati	91857	34
6	Farg'ona viloyati	116154	32
7	Samarqand viloyati	115706	30
8	Namangan viloyati	81949	29
9	Surxondaryo viloyati	79430	24
10	Sirdaryo viloyati	67001	23
11	Toshkent viloyati	89468	22
12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	110683	22
13	Qashqadaryo viloyati	82052	16
14	Respublika bo'yicha	1 228 237	28

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini samarali, barqaror rivojlantirish, sohada ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish mamlakatdagi 2 ta eng asosiy muammolarni

³³ Muallif ishlanmasi.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif tuzdi.

yechishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi masala –mintaqalarida qishloq xo‘jaligini yanada samarali rivojlantirish asosida kambag‘allikni kamaytirish, ikkinchi masala – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash.

Mamlakatda so‘nggi yillarda barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida 2019-2023 yillar doirasida kambag‘allikning xalqaro chegarasidan past ko‘rsatkichlarda, ya’ni kuniga 3,2 AQSH dollari daromad qiladigan aholi soni 26,3 % dan 20,0% ga tushdi, kuniga 1,9 AQSH dollari daromad qiladigan aholi soni esa 5,9 % dan 5,4 % ga tushdi. 2021-yildan boshlab respublikamizda kambag‘allikning milliy darajasi minimal iste’mol xarajatlari bazasida hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich respublikamizda 2021-yil yakuni bo‘yicha 17%, 2022-yil yakuni bo‘yicha 14%, 2023-yil yakuni bo‘yicha 11 % ni tashkil etdi. 2024- yil yakuni bo‘yicha bu raqamni 10 % ga tushirish rejalashtirilgan va tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda³⁵.

Uglerod chiqindilarini, asosan, karbonat angidrid (CO₂) kabi issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan hisoblanadi. O‘zbekistonda dekarbonizatsiya jarayonlarining 2010-2023 yillardagi dinamikasini tahlil qilgan holda, mamlakatning 2024-2028 yillar uchun kutiladigan dekarbonizatsiya ko‘rsatkichlari prognozini ishlab chiqdik. O‘zbekistonda dekarbonizatsiya jarayonlari dinamikasi 13-rasmdagi ko‘rinishni hosil qildi.



13-rasm. O‘zbekistonda dekarbonizatsiya jarayonlari dinamikasi (2010-2023 yillar)³⁶

Bu model bo‘yicha ARMA(1,1), ARMA(2,1), ARMA(1,2) va ARMA(2,0) ko‘rinishidagi modellardan foydalanildi. Bular orasidan eng yaxshi natijaga ega ARMA(2,1) modeli tanlab olindi. Aniqlangan ARMA(2,1) modelning ko‘rinishi quyidagicha:

$$X_t = 1499440 + 1,93X_{t-1} - 0,95X_{t-2} + a_t - 0,02a_{t-1}$$

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga asosan muallif tadqiqoti.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga asosan muallif tuzdi.

ARMA(2,1) modeli orqali aniqlangan natijalarning ishonchligini belgilash orqali tekshirilgan kriteriyalarning natijalari 7-jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

7-jadval.

ARMA(2,1) modeli orqali aniqlangan natijalarning ishonchligini belgilash orqali tekshirilgan kriteriyalar

Mean dependent var	440791,4	S.D. dependent var	391425
R-square	0,985	Correct. R-square	0,982
Mean of innovations	5790,6	S.D. of innovations	6341,6
Log-likelihood	179,025	Akaike criterion	368,05
Schwarz criterion	371,24	Hannan-Quinn	367,75


2024-2029 yillar davomidagi prognoz natijalari, standart xatolik va 95 foizda ishonchli oraliqlarni aniqlaymiz. Bu aniqlangan natijalar 8-jadvalda keltirilgan:

8-jadval.

ARMA(2,1) model orqali aniqlangan 2025 – 2029 yillar davomidagi prognoz natijalari

Yillar	Prognoz natijasi	Standart xatolik
2025 yil	2113603,05	139832
2026 yil	2433271,33	227147
2027 yil	2716687,95	231168,4
2028 yil	2959855,31	318200,17
2029 yil	3159824,19	415211,12

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil uchun kutiladigan dekarbonizatsiya ko‘rsatkichi 2113603,05 ni tashkil qiladi. Keyingi yillarning prognoz natijalari o‘shirib borilganini ko‘ramiz. Natijada, 2029-yil uchun bu ko‘rsatkich 3159824,19 ni tashkil qilmoqda (14-rasm).



14-rasm. O‘zbekistonda dekarbanizatsiya jarayonlari prognozi (2025-2029 yillar)

O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish maqsadlari doirasida 2025-2029 yillar uchun kutiladigan dekarbonizatsiya jarayonlarining prognoz ko‘rsatkichlari ijobiy natijani bermoqda.

XULOSA

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarimiz asosida quyidagi ilmiy xulosalar olindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. “Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy rivojlanishning yangi kategoriyasi sifatida mamlakatlar va ularning turli mintaqalarining barqaror rivojlanishida, atrof-muhitning ifloslanishining oldini olishda, resurslardan tejamkor va samarali foydalanishda, yangi ish o‘rinlarini yaratishda, turdosh tarmoqlar taraqqiyotida yuqori daromad olishga imkoniyat yaratmoqda.

2. «Yashil iqtisodiyot»da jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bilan bir qatorda tabiiy-ekologik hodisalarni ham tadqiq qiladi, ularning o‘zaro bog‘liqlikdagi natijalarini o‘rganadi, shu sababdan, bu jarayonlarni tadqiq qilishda, mazkur muammoni hal etishda ularning integratsiyasini va nazariy-metodologik mexanizmlarini to‘liq namoyon qiluvchi yangi nazariy-metodologik asos - ekotizimli yondashuv taklif qilinadi.

3. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bugungi kun taraqqiyotining dolzarb va obyektiv zaruriy jarayonidir. Bu dunyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston oldida turgan dolzarb ekologik muammolarni hal qilish, mintaqalarda barqaror rivojlanishni ta‘minlash va inson hayoti farovonligini oshirishda hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy, ekologik chaqiriqlariga javob beruvchi modeldir.

4. O‘zbekiston sharoitida, dastlabki davrda yashil iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirish yo‘nalishlari sifatida quyidagilar tavsiya qilinadi: chiqindilarni utilitatsiya qilish; tabiiy resurslardan foydalanish; energetika; qishloq va suv xo‘jaligi, jamoat va shaxsiy transport, yashil texnologiyalar va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish, ekologik madaniyatni kuchaytirish.

5. O‘zbekistonda mintaqalarni “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanmagan, iqtisodiyot tarmoqlarining ayrim sohalari bo‘yicha “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, yashil o‘sishga erishish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini inobatga olish taklif etiladi.

6. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot” sharoitiga o‘tish jarayonlari boshlangan bo‘lsada, ushbu yo‘nalishda qator ko‘rsatkichlarning statistikasi yuritilmasligi mintaqalarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning haqiqiy holati to‘g‘risida ma’lumotlar olish va xulosa chiqarishda to‘siq bo‘lmoqda. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida barcha statistik ma’lumotlar yuritilishi, ularning ochiqqligini ta‘minlashni joriy qilish taklif qilinadi.

7. Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot”ni baholash tizimini shakllantirishga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Mamlakatlar yoki ularning hududiy qismlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini baholashda yagona, takomillashgan, umume’tirof etilgan indeks yoki indikator, biror bir ko‘rsatkich, usul mavjud emas. Muallif mintaqa barqaror rivojlanishini baholashning uch komponentga (iqtisodiy-34%, ijtimoiy-33 %, ekologik-33%) asoslangan kompleks baholovchi klaster usulini taklif qiladi.

8. Mamlakatda sanoat rivojlanishi barqaror yuz berayotgan bo'lsada, yalpi hududiy sanoat mahsuloti va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish mintaqalar o'rtasida keskin farqlanadi, sohada yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilganligi juda pastligi kuzatiladi, bu hol yaqin kelajakda yaxshilanmasa, tarmoqning mintaqalar umumiy barqaror rivojlanishiga salbiy ta'siri kuzatilishi mumkin.

9. Xizmatlar sohasi o'zining rivojlanish tendensiyasi va hududiy xususitlariga ko'ra mamlakatda tez shakllanib, rivojlanib, kengayib borayotgan tarmoq bo'lsada, mazkur tarmoqda hali raqamlashish, innovatsiyalar va yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy qilinganligi juda past darajada. Ushbu tarmoq yashil iqtisodiyotga o'tishda hududlarda eng katta ta'sirga ega bo'lgan, madaniy va texnologik jihatdan mintaqalarning yashil iqtisodiyotga o'tishini jadal amalga oshirishga ko'maklashuvchi, yo'naltiruvchi omil sanaladi.

10. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi mamlakat aholisining asosiy qismining turmush tarzi yaxshilanishini, ayrim mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi darajasini belgilab beradi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda eng avvalo ushbu tarmoqqa ustuvor ahamiyat berish talab etiladi. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, agrar soha "yashil iqtisodiyot" tamoyillari eng sust joriy qilingan, atrof-muhitning ifloslanishiga kuchli moyillikka ega soha sanaladi. Ushbu tarmoqning "yashillashuv" darajasini oshirish, o'z-o'zidan boshqa, yo'ldosh tarmoqlarning shunday darajasini oshiradi.

11. O'zbekistonda mintaqalarni ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish hududlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni talab qiladi. Bunga sabab hududlarda iqtisodiyot tarmoqlari hozirda asosan resurstalab va energiyatalab ishlab chiqarishga asoslangan. Tog'-kon, energetika, rangli metallurgiya, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlar shular jumlasidandir. Bu tarmoqlarda resurstejovchi, yuqori texnologik, energiyatejamkor ishlab chiqarishni joriy qilish mavjud muammolar yechimining eng maq'bul yo'lidir. Yuqori texnologik ishlab chiqarishni joriy qilish mintaqalar iqtisodiyotida shakllangan an'anaviy ishlab chiqarishni qisqartirishga, pirovardda, atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirishga, iqtisodiyotning ekologiyalashuviga erishiladi.

12. O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida mintaqalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul yo'nalishlari sifatida 4 ta yo'nalish: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi transformatsiyasi, yerdan foydalanishni va uni muhofazalashni oqilona tashkil etish, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni qat'iy joriy qilish taklif etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/27.09.2024.1.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЯВМУТОВ ДИЛШОД ШОЙИМАРДОНКУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УСТОЙЧИВОГО
РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К
"ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ" (на примере Бухарской области)**

08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) экономических наук**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2023.3.DSc/Iqt558 Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Бухарского государственного университета: www.buxdu.uz и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный консультант:

Хамидов Обиджон Хафизович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тухлиев Нурилом
доктор экономических наук, академик

Эгамбердиев Фарманкул Турсункулович
доктор экономических наук, профессор

Низамов Аслидин Бадретдинович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится 10 декабря 2024 года в 15.00 часов на собрании Разового научного совета при Научном совете PhD.03/05.05.2023.1.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером 2594). (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57, e-mail: buxdu_arm@mail.uz)

Автореферат диссертации разослан 26 ноября 2024 года

(Протокол реестра № 21 от 26 ноября 2024 года)



Б.Н.Навроз-Зода
член Разового научного совета
по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

Н.С.Ибрагимов
член Разового научного совета при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

А.О.Очилов
Председатель Разового научного
семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. В XXI веке существует острая необходимость определить путь общего развития, поставить цели, отвечающие интересам всех народов, и стремиться к ним. Исходя из этого, были определены путь человечества и его приоритетные критерии в результате многолетних «глобальных консультаций» между ООН, странами мира, их парламентами и институтами гражданского общества, бизнес-сообществами пришли к общему выводу, что путь устойчивого развития является единственно правильным¹. В странах мира зеленая экономика рассматривается как важный социальный, экономический, экологический и культурный фактор в развитии национальной экономики на основе тенденций устойчивого развития. Зеленая экономика как новая форма экономического развития способствует устойчивому развитию стран и их различных регионов, предотвращению загрязнения окружающей среды, экономичному и эффективному использованию ресурсов, созданию новых рабочих мест, развитию смежных отраслей.

В связи с обострением экологических проблем в мире, предупреждением загрязнения окружающей среды и внедрением ресурсосберегающего производства ведется ряд научных исследований по следующим направлениям: использование новых экономических моделей, устойчивое социально-экономическое развитие экономики регионов в условиях перехода к зеленой экономике, эффективное внедрение низкоуглеродного производства в условиях глобального потепления, экологизация экономики, устойчивое развитие регионов в условиях различных кризисов и последующих периодов, совершенствование эффективного использования ограниченных ресурсов, обеспечение социально-экономического равенства. Основы устойчивого развития регионов в условиях зеленой экономики, социально-экономические основы обеспечения зеленого роста, обеспечение устойчивого развития за счет дальнейшего усиления процессов декорбанизации, снижения социально-экономических и экологических проблем.

Стратегической задачей остается адаптация ключевых отраслей экономики Узбекистана к изменениям климата, достижение углеродной нейтральности и резкое увеличение доли “зеленой” энергетики”². Поэтому в ближайшем будущем в нашей стране и ее регионах существует ряд приоритетных задач, обеспечивающих устойчивое развитие экономики нашей страны, опираясь на опыт развитых стран и на принципы зеленой экономики. К ним относятся: достижение устойчивого развития, организация производственных процессов с эффективным использованием имеющихся социально-экономических ресурсов и возможностей, адаптация основных

¹ Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston [Matn] / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2024. – 512 b.

² Выступление президента Узбекистана Ш.Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН 19 сентября 2023 года. <https://president.uz/uz/lists/view/6679>

отраслей экономики к климатическим изменениям, резкое сокращение проблем охраны окружающей среды.

Данная диссертация в определенной степени служит для реализации приоритетных задач, отраженных в указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 февраля 2022 года, №УП-158 “О Стратегии “Узбекистан – 2030”” от 11 сентября 2023 года, №УП-199 “О мерах по дальнейшему повышению уровня зеленых насаждений в республике, обеспечению экологической устойчивости путем последовательной реализации общенационального проекта “Яшил макон”” от 23 ноября 2023 года, №УП-106 “О создании климатического совета при Президенте Республики Узбекистан” от 23 июля 2024 года, Постановлений №ПП-4477 “Об утверждении стратегии перехода Республики Узбекистан к «зеленой» экономике на период 2019-2030 годы” от 4 октября 2019 года, №ПП-436 “О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход республики Узбекистан к «зеленой» экономике до 2030 года” от 2 декабря 2022 года, Постановлении №ПКМ-514 Кабинета Министров Республики Узбекистан “О мерах по организации системы управления переходом к “зеленой” экономике” от 29 сентября 2023 года, №ПКМ-561 «Об утверждении таксономии национальной “зеленой” экономики», о дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию административных территорий и дальнейшему повышению уровня жизни населения” от 25 октября 2023 года, и других нормативно-правовых актах относительной данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации³. В мире научно-практическая работа, посвященная совершенствованию организационно-

